

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSIYALAR ASOSIDA BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNI RAG‘BATLANTIRISH MEXANIZMLARI

Madraximov Qaxramon Egamberganovich

Mamun universiteti “Biznesni boshqarish”

kafedrası professori v.b

E-mail:mkaxramon0617@gmail.com

Sharipov Komil

Mamun universiteti “Biznesni boshqarish”

kafedrası dotsent v.b

Jumaniyozov Feruzbek Dilshod o‘g‘li

Mamun universiteti “Biznesni boshqarish”

kafedrası katta o‘qituvchisi

feruzbek_jumaniyozov@mamunedu.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20395454>

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni samarali rag‘batlantirish mexanizmi biznesni rivojlanishi uchun ahamiyatli ekanligi yoritiladi. Maqolaning asosiy maqsadi biznesni rivojlantirishda raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni rag‘batlantirishni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini tahlil qilish hamda ularning iqtisodiy samaradorligini baholashdan iborat.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiyalar, innovatsiya, biznes, samaradorlik, rag‘batlantirish.

Аннотация: В данной статье подчеркивается важность эффективных механизмов стимулирования цифровых технологий и инноваций для развития бизнеса. Основная цель статьи — анализ механизмов поддержки внедрения цифровых технологий и инноваций в развитие бизнеса и оценка их экономической эффективности.

Ключевые слова: цифровые технологии, инновации, бизнес, эффективность, стимулы.

Abstract: This article highlights the importance of effective mechanisms for stimulating digital technologies and innovations for business development. The main purpose of the article is to analyze mechanisms for supporting the promotion of digital technologies and innovations in business development and to assess their economic effectiveness.

Keywords: digital, technologies, innovation, business, efficiency, incentives.

KIRISH.

Raqamli texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirish va innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan institutsional islohotlar, normativ-huquqiy baza va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari izchil amalga oshirilmoqda.¹ Biroq, mazkur mexanizmlarning biznes samaradorligiga real ta‘sirini chuqur iqtisodiy tahlil qilish zarurati saqlanib qolmoqda. Sun‘iy intellekt, big data, bulutli texnologiyalar, elektron tijorat va raqamli moliyaviy xizmatlar korxonalar faoliyatini transformatsiya qilib, an‘anaviy biznes modellarning o‘rnini platformaviy va innovatsion modellar

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-son farmoni. (2020). “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.

bilan almashtirmoqda. Hozirda O‘zbekistonning asosiy strategiyalaridan biri hisoblangan raqamli texnologiyalarning barcha soha va tarmoqlarga joriy etilishi va qo‘llanilishi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bularga misol qilib kiberxavfsizlik, axborot xavfsizligi va dasturiy tizimlarni ishdan chiqaruvchi viruslarni oldini olish chora-tadbirlarini olishimiz mumkin.

Raqamli innovatsiyalar afzalliklari quyidagilar:²

- Mijozlarni jalb qilishni yaxshilash: Raqamli kanallar korxonalariga real vaqt rejimida o‘z mijozlari bilan muloqot qilish imkonini beradi, bu esa o‘zaro sodiqlik, ishonchlikni kuchaytiradigan shaxsiy tajribalarni shakllantiradi.
- Samaradorlikni oshirish: Avtomatlashtirish va raqamli vositalar jarayonlarni soddalashtiradi, ishlab chiqarish jarayonlari xarajatlarini kamaytiradi va samaradorlikni oshiradi.
- Bozor imkoniyatlarini kengaytirish: Raqamli platformalar global bozorlarni ochib, xorij kompaniyalariga kengroq auditoriyani qamrab olish imkonini beradi.
- Ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish: Ma’lumotlar tahliliga kirish korxonalariga to‘g‘ri qarorlar qabul qilishda va investitsiyalarning daromadlilik (ROI-return on investment) uchun strategiyalarni takomillashtirishda yordam beradi.
- Raqobat ustunligi: Raqamli transformatsiyaga moslashgan korxonalar raqobatchilarga nisbatan ustunlikni shakllantiradi.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda biznes subyektlarining barqaror rivojlanishi raqamli texnologiyalar va innovatsion faoliyatni joriy etish darajasi bilan bevosita bog‘liqdir. Raqamli transformatsiya ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, bozor shaffofligini ta’minlash hamda yangi biznes modellarning shakllanishiga xizmat qiladi³. Shu sababli davlat va bozor institutlari tomonidan raqamli texnologiyalar hamda innovatsiyalarni rag‘batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Shu sababli davlat va bozor institutlari tomonidan raqamli texnologiyalar hamda innovatsiyalarni rag‘batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Qo‘llab-quvvatlash mexanizmi — bu biznes subyektlarining raqamli texnologiyalarni joriy etishi va innovatsion faoliyatini faollashtirishga qaratilgan iqtisodiy, institutsional, moliyaviy va tashkiliy choralar majmuasidir. Ushbu mexanizmning asosiy maqsadi innovatsion muhitni yaxshilash, raqamli infratuzilmani rivojlantirish va tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishdan iborat.

Biznesni rivojlantirish jarayonida raqamli texnologiyalarning ta’sirini aniqlash va baholash maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi.

Respublikada innovatsion rivojlanishni jadallashtirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida innovatsiyalar va texnologiyalarni keng tatbiq qilish, inson kapitalini, ilm-fan va innovatsiya sohalarini rivojlantirish maqsadida 2022 — 2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi ishlab chiqildi.⁴

Strategiyaning asosiy yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilansin:

- innovatsion infratuzilma subyektlari (innovatsion texnologik park, texnologiyalar transferi markazi, innovatsion klaster, venchur tashkiloti, innovatsiya markazi, startap akselerator, inkubator) tarmog‘ini shakllantirish orqali startap tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash hamda yirik hajmli ishlab chiqarishni (kapital yaratish) tashkil etish;

² <https://infocom.uz/> sayti ma’lumoti

³ Porter, M.E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. New York: Free Press, 1985.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2022 — 2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida, 06.07.2022 yildagi PF-165-son

- innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish orqali innovatsion faol tashkilotlar ulushini oshirish;
- kichik tadbirkorlikning innovatsion faolligini oshirish orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy jadal o‘shirishini ta’minlash;
- yangi turdagi mahsulotlar va innovatsion texnologiyalar yaratishning g‘oyadan yakuniy iste’molchigacha bo‘lgan kompleks tizimini ta’minlash orqali innovatsiyalarga bo‘lgan talabni rag‘batlantirish;
- yaratilgan kapitalni “tubdan yangilovchi” innovatsiyalarga qayta yo‘naltirish tizimini shakllantirish;
- ta’limning barcha bosqichlarida yaratuvchanlik, innovatsion tadbirkorlik va ratsionalizatorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali innovatsion faoliyat boshqaruvida inson kapitalini yanada rivojlantirish.

Axborot texnologiyalari sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar uchun soliq stavkalarining pasaytirilishi, R&D (ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari) xarajatlarini qisman kompensatsiya qilish, raqamli uskunalar va dasturiy mahsulotlarni import qilishda bojxona imtiyozlarining berilishi biznesning innovatsion faolligini oshiradi⁵. Bundan tashqari, vechur moliyalashtirish mexanizmlarining rivojlanishi yuqori riskli, ammo yuqori qo‘shimcha qiymatga ega raqamli loyihalarni moliyalashtirish imkonini yaratadi.

Institutsional mexanizmlar raqamli biznes muhitini shakllantirishda muhim hisoblanadi. Ular normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, davlat boshqaruvida raqamli yondashuvlarni joriy etish va innovatsion institutlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlashni o‘z ichiga oladi.

Birinchi, elektron hukumat (e-government) tizimlarining rivojlanishi biznes uchun ruxsat berish, litsenziyalash va hisobot topshirish jarayonlarini soddalashtirib, ma’muriy to‘siqlarni qisqartiradi. Ikkinchi, texnoparklar, biznes-inkubatorlar va innovatsion klasterlar orqali startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash raqamli innovatsiyalarning tijoratlashuvini tezlashtiradi. Uchinchi, intellektual mulkni himoya qilish mexanizmlarining kuchaytirilishi innovatsion faoliyatga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

Axborot texnologiyalari sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar uchun soliq stavkalarining pasaytirilishi, R&D (ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari) xarajatlarini qisman kompensatsiya qilish, raqamli uskunalar va dasturiy mahsulotlarni import qilishda bojxona imtiyozlarining berilishi biznesning innovatsion faolligini oshiradi⁶. Bundan tashqari, vechur moliyalashtirish mexanizmlarining rivojlanishi yuqori riskli, ammo yuqori qo‘shimcha qiymatga ega raqamli loyihalarni moliyalashtirish imkonini yaratadi.

1-jadval⁷

Biznesni rivojlantirishda raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari va ularning iqtisodiy ta’siri.

Qo‘llab-quvvatlash mexanizmi	Asosiy vositalar	Biznes rivojiga ta’siri
Moliyaviy mexanizmlar	Grantlar, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar, vechur moliyalashtirish	Innovatsion loyihalar sonining oshishi, investitsiya faolligining kuchayishi
Institutsional	IT-parklar, texnoparklar, biznes-	Startaplar rivoji,

⁵ Schumpeter, J.A. The Theory of Economic Development. Harvard University Press, 1934.

⁶ World Bank. Innovation Policy: A Guide for Developing Countries. Washington, DC, 2018.

⁷ Sayt ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

mexanizmlar	inkubatorlar, startap akseleratorlar	texnologiyalar transferi, yangi ish o‘rinlari
Normativ-huquqiy mexanizmlar	Soliq imtiyozlari, soddalashtirilgan litsenziyalash, raqamli hujjat aylanishi	Biznes yuritish xarajatlarining kamayishi, qulay muhit
Texnologik infratuzilma	Bulutli texnologiyalar, elektron platformalar, raqamli to‘lov tizimlari	Samaradorlik oshishi, tranzaksiya xarajatlarining qisqarishi
Inson kapitalini rivojlantirish	IT-ta’lim, raqamli ko‘nikmalar, malaka oshirish dasturlari	Mehnat unumdorligi va innovatsion salohiyatning oshishi

Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni rag‘batlantirish mexanizmlari o‘zaro bog‘liq holda ishlaganda maksimal samara beradi. Masalan, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash institutsional infratuzilma bilan uyg‘unlashganda startaplarning bozorga chiqish ehtimoli sezilarli darajada oshadi. Shu bilan birga, normativ-huquqiy islohotlar va raqamli infratuzilmaning rivojlanishi biznes muhitini barqarorlashtirib, xususiy sektor faolligini kuchaytiradi. Institutsional mexanizmlar raqamli biznes muhitini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Ular normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, davlat boshqaruvida raqamli yondashuvlarni joriy etish va innovatsion institutlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlashni o‘z ichiga oladi. Innovatsiyalarning iqtisodiy o‘sish va biznes rivojlanishidagi fundamental roli asoslangan.⁸

Yuqorida ko‘rib chiqilgan mexanizmlarning kompleks qo‘llanilishi biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, mehnat unumdorligini oshirish va eksport salohiyatini kengaytirishga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish tezligi va aniqligi oshib, bozor xavflari samarali boshqariladi.

Shu bilan birga, innovatsion rivojlanish biznesda yangi mahsulot va xizmatlarni yaratish, raqamli platformalar orqali yangi bozor segmentlariga chiqish imkonini beradi. Natijada, raqamli va innovatsion qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari iqtisodiyotning umumiy raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim strategik omil sifatida namoyon bo‘ladi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, biznesni rivojlantirish jarayonida raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Raqamli yechimlarning biznes jarayonlariga joriy etilishi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish hamda boshqaruv qarorlarining tezkorligi va aniqligini ta‘minlash imkonini bermoqda. Bu esa korxonalarining ichki barqarorligi va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish va biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha milliy statistik va institutsional ma‘lumotlar shuni tasdiqlaydiki,⁹ raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmi kompleks xarakterga ega bo‘lib, institutsional, moliyaviy-iqtisodiy hamda tashkiliy-infratuzilmaviy choralarning o‘zaro uyg‘unligi asosida samarali ishlaydi. Xususan, normativ-huquqiy bazaning takomillashtirilishi, elektron hukumat tizimlarining rivojlanishi, soliq va moliyaviy imtiyozlar, shuningdek, innovatsion infratuzilmaning kengaytirilishi biznes subyektlarining raqamli

⁸ Schumpeter, J.A. The Theory of Economic Development. Harvard University Press, 1934.

⁹

transformatsiyasini jadallashtiradi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish va biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha milliy statistik va institutsional ma'lumotlar.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-son farmoni. (2020). “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida.
2. <https://infocom.uz/> sayti ma'lumoti
3. Porter, M.E. *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*. New York: Free Press, 1985.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2022 — 2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida, 06.07.2022 yildagi PF-165-son
5. Bardiboyevich, P. S., & Dilshodbekovna, S. M. (2025). IMPROVING THE INVESTMENT CLIMATE IN THE REGION BASED ON INNOVATIVE APPROACHES. *AMERICAN JOURNAL OF BUSINESS MANAGEMENT*, 3(5), 25-29.
6. Jumaniyozov, F. (2024). Opportunities to create new jobs in the context of the transition to a 'green' economy. *University Research Base*, 264-267.
7. Jumaniyozov, F. (2025). Xudarganov T. Hududlar iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishining xorij tajribasi. *Молодые ученые*, 3, 18.
8. Jumaniyozov, F. (2025). Mintaqada barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda yashil mehmonxonalar ahamiyati. *University research base*, 272-275.
9. Sherjonov, S., Axmedova, D., Masharipova, X., Niyozmetov, D., & Jumaniyozov, F. (2025, November). The impact of CO2 emissions and renewable energy on economic growth in Uzbekistan: A VECM analysis. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 3331, No. 1, p. 030024). AIP Publishing LLC.
10. Madraximov Q.E. Analyzing the Social-Economic Development Potential of regions. // *Экономика и предпринимательство*, № 10 (171) 2024 г. Volume 18 Number 10. 508-512-c. (08.00.00; №29).
11. Q.Madraximov, M.Matkarimov, A.Yakubov, J.Nurjonov. METHODOLOGICAL APPROACHES TO ASSESSMENT OF ENTREPRENEURIAL ABILITY *American Journal of Business Management, Economics and Banking*. Volume 39, August – 2025. p 16-23